UO‘K 811. 512. 133

TILSHUNOSLIKDA SINKRETIZM VA POLISEMIYA HODISASI

O.M. Tojiyev

Tilshunoslikda sinkretizm, polisemiya, ko‘pma’nolilik tushunchalarining bir-biri bilan o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari mutaxassislar tomonidan turli darajada yoritilgan. Ko‘pma’nolilik tushunchasi polisemiya tushunchasiga nisbatan keng qamrovli tushuncha ekanligi ko‘p bora qayd etilgan. Maqolada ko‘pma’nolilikning polisemiya tushunchasi bilan munosabati ko‘rib chiqilgan. Sinkretizm va polisemiyaning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Polisemiya tushunchasi sinkretik semantik maydonda butunning bo‘lagi sifatida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *sinkretizm, polisemiya, omonimiya, dubleksiya, mantiq, semantika, transformatsiya, metafora, metonimiya, sintaksis.*

В лингвистике в разной степени исследованы сходства и различия между языковыми явлениями синкретизма, полисемии и многозначности. Часто отмечается, что понятие многозначности является более широким, чем понятие полисемии. В статье рассматривается связь между многозначностью и полисемией. Выявлены сходства и различия синкретизма и полисемии. Понятие полисемии изучается как часть целого в синкретическом семантическом поле.

Ключевые слова: *синкретизм, полисемия, омонимия, дублекция, логика, семантика, трансформация, метафора, метонимия, синтаксис.*

Kirish

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda sinkretizm bilan bog‘liq nazariy qarashlarning faollashuvi bu terminning turli darajada tadqiq etilishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, sinkretik nazariyaning rivojlanishi natijasida sinkretizm atamasi bilan bog‘liq bir qator atamalar yuzaga keldi. Tilshunoslikda bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. L.Yelmslev, R.N.Yakobson, P.Adames, V.Skalichka, A.Ya.Bauder, L.V.Borte, A.M.Peshkovskiy, V.Vinogradov, Yu.S.Stepanov, V.V.Babayseva, Ye.P.Kaleches, Yu.D.Apryesyan, A.A.Zaliznyak, T.V.Kolesnikova kabi tilshunoslarning qarashlarida sinkretizm turlicha talqin etilgan. Shu sababli sinkretizm tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida tilshunoslar orasida bahs va munozaralarni yuzaga keltirdi. Bu bahs-munozaralar sinkretizmning kelib chiqishi va tarixini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Manbalarda sinkretizm keng tushuncha sifatida falsafa, mantiq, adabiyotshunoslik, psixologiya singari fanlarga aloqadorligi aytilgan. Sinkretizm falsafa, mantiq, adabiyotshunoslik, psixologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi muhim tadqiqot natijalarini yuzaga chiqarishga imkoniyat yaratdi.

Material va usullar

Tilshunoslikda sinkretizm va polisemiyaning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish va tahlil etish dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqola ham sinkretizm va polisemiyaning o‘xshash hamda farqli tomonlarini yoritib berishga qaratilgan tadqiqot sanaladi. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda sinkretizm va polisemiyaning kelib chiqish manbasi yuzasidan turli qarashlar mavjudligi maqolaning asosiy mazmunini belgilaydi.

Muammoni o‘rganishda mantiqiy-semantik, struktur-semantik tahlil, qiyoslash, lingvistik tavsiflash kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Sinkretizmning falsafa va mantiq bilan uzviy bog‘liqligi tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlarida namoyon bo‘ldi. Shu boisdan tilshunoslikdagi til va tafakkur munosabatining o‘zaro bog‘liqligi semantik sinkretizmda o‘z ifodasini topdi. Bu munosabat esa muhim ahamiyatga ega hisoblanadi va uni inkor etib bo‘lmaydi. Ma’lumki, til voqelik bilan bilvosita aloqada bo‘lmaydi, balki u bevosita tafakkur orqali unga

voqelik bilan bog‘lanadi. Til va tafakkur ma’no orqali bilvosita bog‘lanishda bo‘ladi. R.Sayfullayeva tahriri ostida nashr etilgan “Tilshunoslikka kirish” darsligida shunday munosabat bildiriladi: “Til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi har qanday narsaning ma’nosini aks ettiradi. Tilsiz tafakkur mavjud bo‘lmaganidek, tafakkursiz til ham mavjud emas. Hech qanday ma’noga ega bo‘lmagan, faqat ma’lum tovushlar tizimidan iborat bo‘lgan so‘zlar muayyan tushunchani ifodalamaydi, tasavvur ham hosil qilolmaydi. Va nihoyat, fikr ifodalash funksiyasini bajarmagan bunday so‘zlar nutq uchun xizmat qila olmaydi” [1. B. 28]. Albatta, til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jamiyat taraqqiyotiga ham ta’sir qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti turli fanlarning integratsiyalashuviga asoslanadi. Bu taraqqiyot til, tafakkur va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Bu esa aqliy faoliyat va tilning tizimli munosabati, ularning bir-biriga ta’sir darajasi orqali belgilanadi. Aqliy faoliyatdagi voqelik tilda namoyon bo‘ladi. Til va tafakkur voqelikni nomlaydi, unga ma’no-mazmun kiritadi. Demak, til va tafakkur mazmuniy munosabatni yuzga chiqaruvchi hamdir. Semantik sinkretizm til va tafakkurning mantiqiy mahsuli sifatida bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisalar hisoblanadi. Bu o‘rinda aytish mumkinki, semantik sinkretizm idrok bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan til va nutq hodisasi bo‘lib, idrokning xilma-xil turlarini birlashtirgan leksik birliklarda namoyon bo‘luvchi belgilardan tashkil topadi. Ko‘plab tashqi omillar bilan belgilanadigan empirik jarayonning murakkabligi, fikrlash va nutq rivojlanishining dastlabki bosqichiga kiruvchi ma’lumotlarni tushunish, qayta ishlash va tizimlashtirishdagi qiyinchiliklardan iborat bo‘ladi [2]. Anglashiladiki, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatning o‘zaro jips bog‘liqligi semantik sinkretizm jarayonlarini belgilaydi. Mazmun borliqdagi voqea-hodisalarning o‘ziga xos individual ifodasini beradi. Semantik sinkretizm borliqdagi voqea-hodisalarning o‘ziga xos tanlovini belgilaydi. Sinkretizmni mantiqiy tushuncha sifatida turli voqea-hodisaning ajralmas munosabatini bildiruvchisi va obyektiv voqelikni semantik aks ettiruvchisi deyish mumkin. Demak, olamni idrok va ifoda etish til va nutq hodisasi sifatida semantik sinkretizmda namoyon bo‘ladi. Jamiyat va tabiatdagi o‘zgarishlar va uning taraqqiyotida insonning roli katta bo‘lib, ularni idrok etish inson tafakkurining mahsuli – nutqda voqelanadi. Bu esa yangi tushunchalar va so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Har qanday tushuncha va so‘z o‘z ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’no kasb etib, rivojlanib boradi. Demak, bir so‘zning ma’nosi kengayib yangi ma’no kasb etishiga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid tadqiqotlarda faktik materiallarga asoslanib, sinkretizmning tildagi so‘z ma’nolari taraqqiyotidagi ko‘pma’nolilik va polisemiya bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Jahon va rus tilshunosligida sinkretizm va polisemiya munosabatlari A.Martine, A.Bauder, B.L.Urof, V.V.Babayseva, V.I.Kurakov, V.A.Bresneva, R.A.Vasilyeva, M.A.Pavlyukoves, I.V.Visoskaya va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Shu bilan birga sinkretizm, polisemiya va ko‘pma’nolilik o‘rtasidagi o‘ziga xos xususiyatlar ham ko‘rsatib o‘tiladi. A.A.Zaliznyakning ta’kidlashicha: “Polisemiya tilning leksik tizimi bilan bog‘liq, ko‘pma’nolilik tilning barcha tizimlariga tegishli hodisadir. Polisemiya paradigmatik xususiyatga ega bo‘lsa, ko‘pma’nolilik sintagmatikani ham qamrab oladi. Ko‘pma’nolilikning polisemiyadan farqi shundaki, u bir vaqtning o‘zida bir qancha ma’nolarni ifodalay olish imkoniyatiga egaligidir. Binobarin, polisemiya ko‘pma’nolilik qurshovida bo‘ladi” [3. B. 20–45].

Tilshunoslik an’analariga ko‘ra ikki ma’nolilik, ko‘pma’nolilik va polisemiya hodisalari umumiy polisemiya atamasiga birlashtiriladi. Har uchala hodisaning tildagi ifodasi polisemiyada aks etadi. Mazkur tushuncha tafakkur hodisasi sifatida inson xotirasidagi mavjud so‘z boyliklaridan unumli foydalanish va his-tuyg‘ularni keng ifodalash imkoniyatidir. Bu esa semantik sinkretizm tushunchasi bilan bog‘lanadi. Bunday vaziyatda sinkretizm va polisemiyaning o‘zaro bog‘liqligi til birliklarida bir so‘z bir vaqtning o‘zida bir necha ma’nolarda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda sinkretizm, polisemiya va ko‘pma’nolilik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab tabiatga ega va murakkab funksiyali til hodisalari sanaladi. I.M.Nekipilova ta’biri bilan aytganda, sinkretizm “ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish)ni rivojlantiruvchi tafakkur tili”, “dunyoni anglash natijasida paydo bo‘lgan yangi assosiatsiyalar bilan to‘ldirila boshlangan mavhum tushunchalarni ifodalash zaruratidir” [4. B. 168–181]. Shu boisdan til va tafakkur birligi borliqni anglashda semantik sinkretizmda aks etadi deyilishi xato bo‘lmaydi. Biroq yangi konnotatsiyaning paydo bo‘lishi va yangi belgining zaruriyati “yangi o‘zak (asos) paydo bo‘lishiga olib kelmaydi, balki mavjud leksik birlikning yashashi yoki o‘xshashlikka ega bo‘lgan yangi ma’nolar bilan kengayishiga olib keladi” [2. B. 12]. Shu tariqa, metafora yoki metonimiya vositasidagi ko‘chirish (yoki siljish) hodisalari yuzaga kelgan va bu sinkretizmning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Bunday o‘zgarishlarga sabab inson faoliyatidagi ijtimoiy munosabatlar va axloqiy, ma’naviy tasavvurlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq ekstralingvistik omillar bo‘lishi mumkin, bu esa qadimgi so‘zlarning semantik tuzilmasiga olib keladi [5. B.13].

Tildagi semantik sinkretik jarayonda metafora va metonimiyalarning voqelanishi o‘z navbatida polisemiyaning o‘zidir. Chunki metafora, metonimiya hodisalari polisemiyaga bog‘liq bo‘lib, tilda ko‘pma’nolilikning voqelanishida faol ishtirokchi hisoblanadilar. Demak, har ikki hodisa polisemiya va sinkretizmni yuzaga chiqaruvchi vositalar hisoblanadi. Shu boisdan ikkisining o‘rtasidagi mantiqiy aloqani har ikki hodisadagi o‘zaro o‘xshashlik bilan bog‘liq holda kuzatish mumkin. Sinkretizm va polisemiya bir so‘zda ikki va undan ortiq ma’nolarni ifodalashda namoyon bo‘ladigan hodisalardir. Masalan, *dam* so‘zi bir o‘zakdan hosil bo‘lgan polisemantik so‘z bo‘lib, uning ma’no ifodalanishi kengayib, sinkretik belgini tashib, bir qator leksik assotsiativ ma’nolar zanjiriga bog‘lanadi. Ya’ni, *dam (nafas), dam purkalgan havo, dam havo purkagich, taft, issiq, harorat, bir nafaslik fursat, lahza, temirchilar ishlatadigan asbob* va boshqalar.

O‘zbek tili ham boshqa tillar qatori polisemantizmga boy til hisoblanadi. Tilimizda ko‘p ma’noli so‘zlar miqdori behisob. Ko‘pma’nolilik so‘zlovchida tinglovchiga ma’lumot uzatishning eng qulay varianti hisoblanadi. Agar ko‘pma’nolilik bo‘lmasa, unda har bir voqea va hodisa o‘z nomi bilan nomlanar va ifoda etilar edi. Bunday vaziyat so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ko‘p noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘pma’nolilik esa bunday noqulaylik kelib chiqishining oldini oladi. Chunki so‘zlovchi qo‘llagan so‘zni tinglovchi o‘ziga maqbul ma’noda qabul qilishi va unga o‘z javob reaksiyasini berishiga qulaylik yaratadi.

Masalan, “*Kumush gul edi. Bu gul so‘ldi”* jumlalari tahliliga e’tibor beraylik. Birinchi jumlada *gul* leksemasi orqali Kumushning *chiroyli, diyonatli, iffatli* ayol ekanligi haqida axborot uzatiladi. Keyingi jumladagi *so‘ldi* leksemasi Kumush ruhiyatidagi *hayotdan norozilik, nohaqlik, ayriliq azoblaridan toliqish, umidsizlik* ma’nolarini ifodalash bilan birga*, Kumush o‘ldi. Kumush vafot etdi* evfemik ma’noga ham ishora qiladi. Demak, *gul* leksemasi metaforik ma’noda insonning tashqi va ichki go‘zalligi ifodasini beradi. *So‘ldi* leksemasi enantiosemik ma’noni ifodalab, matn tarkibida ikki ma’noni anglatishi mumkin. Birinchidan, *hayotdan norozilik, nohaqlik, ayriliq azoblaridan toliqish, umidsizlik* ma’nolarini*,* ikkinchidan *o‘ldi, vafot etdi* leksemalari bilan bog‘langan birikmali vaziyat *inson umrining nihoyasi, tugashi* semalarida mazmuniy sinkretik ma’nolarni ifodalaydi. Bunday vaziyatda tinglovchi o‘zi uchun to‘g‘ri bo‘lgan variantni tanlaydi. Ko‘rinadiki, so‘zlarning ko‘pma’nolilik tabiati so‘zlovchi va tinglovchining borliq hamda voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatini tanlash uchun imkon yaratadi. Demak, so‘zning bir yoki bir necha leksik ma’noni bildirishi uning semantikasi va grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq yuzaga keladi. Shuning uchun ham o‘zbek tili so‘z boyligi chuqur tahlil etilganda, ko‘p ma’nolilikka katta e’tibor beriladi. So‘z turkumlari orasida ot, sifat, son, olmosh, ravish so‘z turkumlariga nisbatan fe’l so‘z turkumida polisemantizm kuchli va sinkretizmni yuzaga chiqaruvchi faol hodisa ekanligi kuzatiladi.

Ma’lumki, polisemiya va ko‘p ma’nolilik hodisalarining o‘zaro munosabati masalasi o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham turli darajada o‘rganilgan. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida T.Aliqulovning “O‘zbek tilidagi ot turkumiga oid so‘zlarda polisemiya” nomli dissertatsiyasi, G.Roziqovaning “O‘zbek tilida sintaktik polisemiya” mavzusidagi dissertatsiyasi bunga misol bo‘la oladi. Ayniqsa, tilshunos M.Mirtojiyevning “O‘zbek tilida polisemiya”, “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyalari bu boradagi tadqiqotlardan mazmun jihatidan alohida ajralib turadigan ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Olim shunday yozadi: “Ma’lum tilda polisemantik so‘zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko‘p bo‘lishi va tilda polisemiyaning nihoyatda taraqqiy etganligi fikr ayriboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug‘dirmaydi. Uning taraqqiyoti obyektiv mavjudotni o‘zaro bog‘liq holda anglash, ularni qiyosiy o‘rganish, taraqqiyotlarning tilda aks etib turishi kabilar natijasi bo‘ladi. Ya’ni polisemiya sivilizatsiya belgisidir” [6. B. 9].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, polisemiya va ko‘pma’nolilik hodisalarini bir atama bilan nomlash o‘zbek tilshunosligidagi manbalarda ham kuzatiladi. Ko‘rinadiki, polisemiya o‘zbek tilshunosligida ham o‘rganilgan va hozirda ham o‘rganilishi davom etayotgan muammolar qatoriga kiradi. Shu bilan bir qatorda, polisemiya va sinkretizm o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik munosabatlarini o‘rganish va tahlil etish o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki shu kunga qadar o‘zbek tilshunosligida polisemiyaning sinkretizm bilan o‘zaro aloqadorligi keng planda o‘rganilmagan masalalar qatoriga kiritilar edi. D.G‘aniyeva “Turli tizimdagi tillarga mansub fe’llarda sinkretizm va polifunksionallik” mavzusidagi monografiyasida sinkretizm va polifunksionallikka to‘xtaladi. U sinkretizm bilan polifunksionallikni yondosh hodisa sifatida talqin etadi. Ingliz va o‘zbek tillarida fe’l so‘z turkumining sinkretikligini qiyosan o‘rganadi [7. B. 18]. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatdan o‘zbek tili materiallarini to‘liq qamrab olmasa-da, sinkretizm va polifunksionallikni o‘rganishga yo‘l ochgan. Binobarin, bu tadqiqotni sinkretizm va polisemiya mavzusini o‘zbek tilshunosligida jiddiyroq o‘rganishga turtki deb hisoblash mumkin. Jumladan, G.Teshaboyeva “O‘zbek tilida maza-ta’m bildiruvchi sifatlarda mazmuniy sinkretizm” mavzusidagi dissertatsiyasida maza-ta’m bildiruvchi sifatlardagi sinkretik polisemiyaga alohida o‘rin ajratadi [8].

O‘rganilgan manbalarda tilshunoslikda polisemiya va omonimiya hodisalaridagi o‘zaro o‘xshash, zidlanuvchanlik xususiyatlari ham polisemiyaning sinkretik tabiatini ifodalaydi degan qarashlar yuzaga keldi. Tilshunoslikda bu ikki hodisani tahlil etish, polisemiya va sinkretizmning o‘zaro aloqadorlik munosabatlarini o‘rganish tadqiqotchilarning turli qarashlariga sabab bo‘ldi. Shu boisdan bu borada tilshunos V.I.Abayevning omonimiya va polisemiyaning o‘zaro munosabatini belgilovchi tadqiqotiga murojaat qilish o‘rinli bo‘ladi. Olimning fikricha, omonimiya va polisemiya keng tushuncha sifatida bir-biriga yaqin munosabatdagi hodisalar sifatida idrok etiladi va ular o‘rtasidagi zidlanish bu ikki hodisa o‘rtasidagi noaniqlikni ko‘rsatadi. Omonimiya va polisemiya o‘rtasidagi munosabat chalkashlikdan iborat [9. B. 43]. V.I.Abayevning omonimiya va polisemiya haqidagi qarashlariga rus va xorijiy tilshunoslardan I.Ye.Anichkov, K.P.Avdeyev va V.N.Sidorov, O.Yemerson, J.Kennedi, J.Jaggere va boshqalar qo‘shiladilar. Bir qator holatlarni nazarda tutgan holda, bu polisemiya emas, ko‘pma’nolilik hodisasi, ya’ni sinkretizmni ko‘rsatuvchi holat deb qaraydilar. M.Mirtojiyev shunday yozadi: “Omonimiya va polisemiya hodisalarining chegarasi qanchalik nazariy jihatdan asoslab berilmasin, ularning o‘tish kechimidagi nuqtasida, albatta, ikkilanuvchi o‘rin uchrashi tabiiy” [10. B. 44].

Demak, bizningcha, ikkilanuvchi o‘rin sinkretizm bilan bog‘liq hodisa bo‘lishi mumkin. Gap shundaki, omonimiya + polisemiyaning o‘zaro o‘xshashligi sinkretik tabiatga egaligi bilan bog‘lanadi, bu ikkilanuvchi o‘ringa yechim bo‘lishi mumkin. Ya’ni har ikki til hodisasida sinkretiklik mavjud. So‘zning bir ma’nodan boshqa ma’noga ko‘chishi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda masalaga “sinkretizm”ga berilgan ta’riflar asosida oydinlik kiritish to‘g‘ri bo‘ladi. Bunday ta’riflarning birida u faqat grammatikaga xos hodisa deb aytiladi. “Til rivojlanishi jarayonida funksional jihatdan turli xil grammatik kategoriyalar va shakllarning bir shaklda muvofiqlashuvi” [11. B. 668] deb ta’kidlanadi. Sinkretizmga berilgan ta’rif, ko‘p jihatdan polisemiyaga berilgan ta’rifga o‘xshaydi. Shu boisdan, sinkretizm grammatik shaklning ko‘p ma’noliligi (polifunksiya)ga tegishli hisoblanadi va terminologik jihatdan ajratilmaydi hamda bu hodisa grammatik polisemiya deb ta’riflanadi.

Sinkretizmga bag‘ishlangan adabiyotlarni o‘rganish chog‘ida “Polisemiyaning sinkretizm bilan qanday munosabati bor?” degan savolga javob izlash o‘rinli bo‘ladi. Yu.S.Maslov shunday yozadi: “...tildagi so‘zlarning aksariyati ikki ma’nolilik, polisemiya yoki ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega. Ko‘p hollarda bir so‘z bir necha turg‘un ma’nolar bilan birga mavjud bo‘lib, bu so‘zning semantik variantlarini hosil qiladi va imkoniyat darajasida deyarli barcha so‘z yangi ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, “agar insonda yangi narsa, hodisalarni nomlash zarurati tug‘ilsa, nomlash uchun lug‘at boyligida so‘z topilmasa, bunday vaziyatda o‘zga tilga murojaat qiladi yoki narsa, hodisalarning variantini qo‘llaydi” [12. B. 102].

Sinkretizm va polisemiya hodisalarining o‘zaro munosabati qorishiqliq asosida yuzaga keladi. Chunki ular o‘rtasidagi munosabatda ma’lum darajada tenglik kuzatiladi. Gap shundaki, tenglik munosabati tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, *Hayotxon bechora ip eshib, marvaridlarini terishga o‘tirdi* (M.Ismoiliy). Bu matnda *termoq* fe’li ko‘p ma’no, shuningdek, sinkretik ma’no ham ifodalaydi. Leksik sathda *termoq* fe’li bir qator ma’no ottenkalarini birlashtiradi. *Termoq* fe’lining *tizmoq, taxlamoq, taxmonlamoq, to‘plamoq, joylamoq* va boshqa ma’nolari to‘plami yuzaga chiqadi. Keltirilgan matnda termoq fe’lining *tizmoq, to‘plamoq* ma’nolari reallashadi. Sintaktik sathda *terishga* so‘zi “nimaga o‘tirdi?” so‘rog‘iga javob bo‘lib to‘ldiruvchi vaziyatida keladi. Joy nomiga nisbatan *terishga* “nima maqsadda o‘tirdi?” so‘rog‘i berilib, maqsad holi ifodalagan ma’noni voqelantiradi. Yoki “*Tog‘da gul terish kishi qalbiga zavq bag‘ishlaydi”* jumlasida terish leksemasi leksik sathda yuqorida qayd etilgan ma’nolarni aks ettiradi. Sintaktik sathda “nima qilmoq?” so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesim vaziyatida keladi. “Qanday maqsadda terish?” yoki “nima uchun terish?” so‘roqlari maqsad va sabab hollarining ma’nolarini voqelantiradi.

Qalin sifat leksemasining ko‘pma’nolilik xususiyati quyidagi matnlarda tahlil etiladi: *U asli dadamning qalin o‘rtog‘i bo‘lgan* (I.Rahim). *Senga bir vazifa – dedi Marhamat Ahmadning qo‘liga qalin daftar tutqazib*... (H.Nazir). *Mashhura qalin qoshlarini chimirib, Turdivoyga zardali nazar tashladi* (R.Muxtorov). Ushbu matnlarda *qalin* leksemasi uch o‘rinda qo‘llanilgan va uch ma’noni oydinlashtirgan. Aytish mumkinki, *qalin* leksemasining ko‘p ma’nolilik tabiati bu leksemaning ma’nolari cheksizligini bildiradi. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qalin* so‘zining bir necha ma’nolari izohlangan: “1) yaxshi va mustahkam aloqali; qadrdon, yaqin, jonajon; 2) ko‘p, mo‘l; 3) tutash holatli; quyuq; 4) bir-biriga juda yaqin joylashgan; zich” [13. B. 228]. Ushbu ma’nolar sintaktik konstruksiyalarda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi, jumla tarkibidagi so‘zga va sintaktik tuzilishiga ta’sir etadi. Bir vaqtning o‘zida polisemiya va sinkretizm o‘rtasida kesishuv yuz berishi leksemalarning turli ma’nolarni ifodalashiga imkon yaratadi.

Semantik sinkretiklik ko‘p ma’noli hodisalarning imkoniyatini yanada kengaytiradi. Turkumlararo bog‘lovchi vazifasini ham bajarib, leksemalardagi ko‘p ma’nolilik xususiyatlarini kengaytirib beradi.

So‘zning ko‘pma’noliligi uning ikki yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lish xususiyatidir. Polisemantik so‘z to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma ma’noga ega hisoblanadi. So‘zning matn tarkibidagi asosiy denotativ ma’noda qo‘llanilishi stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. Konnotativ ma’no esa matn tarkibida sinkretizmni yuzaga chiqaruvchi vositalardan hisoblanib, turli mazmun beradi. So‘z ko‘chma ma’nosining matn tarkibidagi ikkinchi yoki uchinchi ma’nolari stilistik rangga ega bo‘lib, kognitiv va pragmatik, metaforik ma’nolar orqali reallashadi. Ko‘pma’nolilik hodisasining rivojlanishi ma’lum bir so‘z bilan ifodalangan narsa yoki unga o‘xshash bo‘lgan voqea-hodisaning yaqinligi asosida sodir bo‘lishidir. Ko‘rinadiki, sinkretizm ko‘pma’nolilik hodisasini o‘ziga qabul qiladi va voqelantiradi. Ya’ni ko‘pma’nolilik yukini o‘ziga olib, kengaytiruvchi vazifasini ham bajaradi. Polisemiya faqat genetik ma’no taraqqiyoti bo‘lib qolmay, u genetik ma’nodan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolar taraqqiyoti hamdir [14. B. 82]. Anglashiladiki, polisemiya ko‘chma ma’nolar hosil qiluvchi hodisa sifatida gibridlilik (sinkretizm)ni yuzaga keltiradi.

Sinkretizm polisemiya tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki polisemiya bir atama doirasidagina sinkretizm bilan o‘zaro munosabatni tashkil etadi. Sinkretizm turli lingvistik atamalarni o‘ziga birlashtirgan hodisa sanaladi. Sinkretizm va polisemiyaning farqlanuvchanligi sintaktik sath birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki polisemiya bir belgi bilan turli ma’no ifodalaydi va bir sintaktik vazifani bajarib turli ma’no ottenkalarini yuzaga chiqaradi. Sinkretizm esa gapning semantik-sintaktik strukturasida turli sintaktik vazifalarni bajaradi, mantiqan o‘zi bog‘liq bo‘lgan predikativ birliklarning semantik imkoniyatlari kengaytiruvchisi hisoblanadi. Sinkretizm ham polisemiya singari bir belgi bilan turli ma’no anglatadi. Polisemiya va sinkretizmning o‘zaro yaqin munosabati tildagi tejamlilik hodisasi bilan bog‘liq. Tejamlilik so‘z ma’nolarini turlicha ifoda etishda muhim rol o‘ynaydi. Polisemiyadan farqli, sintaktik sathda sinkretizm bir so‘zni semantik jihatdan turli gap bo‘laklari vaziyatida ko‘rsata oladi va so‘zga stilistik jihatdan turli bo‘yoqlar beradi. Boshqacha aytganda, tilda turlanuvchanlik (*xameleon*) vaziyatida bo‘ladi. Chunonchi, bir so‘zning rang-barang ma’no tovlanishida har ikki hodisa bir (semantik) tizimga bog‘lanadi. Sinkretizm esa bir qator tilshunoslik atamalari bilan turli usullarda o‘zaro bog‘lanadi, semantik yaxlitlikni ta’minlaydi, til va nutq hodisasi sifatida tilning barcha sathlarida voqelanadi. Ya’ni sinkretizm va polisemiya butun va bo‘lak munosabati asosiga qurilgan, uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab sistemani tashkil etuvchi til va nutq hodisalari sanaladi. Sinkretizm – butunlik, polisemiya esa uning elementi, komponenti sifatida idrok etiladi. Demak, sinkretizm va polisemiyaga yangi leksik-semantik, leksik-grammatik, semantik-sintaktik voqelanishni ifodalovchi hodisalar sifatida qarashimiz mumkin bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, polisemiya va sinkretizmning lingvistik maqomini belgilashda, avvalo, tilshunoslikda sotsiologik yo‘nalish ta’limoti bilan iz qoldirgan Parij maktabi vakillarining qarashlaridan kelib chiqib, tilning funksional tabiatini ochib berish to‘g‘ri hisoblanadi. Fransuz tilshunosi Antuan Meye so‘zning sotsial tabiati, ayniqsa, so‘z ma’nosining o‘zgarishlari haqida to‘xtalib, til imkoniyatlarining naqadar kengligini qayd etgan. A.Nurmonov Meyening lingvistik qarashlari haqida shunday yozadi: “Meye so‘z ma’nosi o‘zgarishlarining asosiy sababi sof sotsial xarakterga egaligini ta’kidlaydi. So‘z bir sotsial kategoriyadan ikkinchisiga o‘tganda o‘z ma’nosini o‘zgartiradi. Agar so‘z kengroq sotsial guruhdan torrog‘iga o‘tsa, ma’no torayishi, aksincha bo‘lganda esa kengayishi ro‘y beradi. Masalan, lotincha *paganus* dastlab “qishloq aholisi” ma’nosini bildirgan bo‘lsa, keyinchalik shahar xristianlari orasida “majusiy” ma’nosida qo‘llanila boshladi. Natijada bir sotsial guruhda o‘z ma’nosini toraytirdi. Aksincha, fransuzcha niais (“sodda”) ovchilar nutqida nid “uya” so‘zi bilan bog‘lanib “babajish qush”, “go‘l” ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, keng jamoatchilik nutqida o‘z ma’nosini kengaytirdi va umuman sifat ma’nosini ifodalaydigan bo‘ldi” [17. B. 120]. Masalan, o‘zbek tilida *kurash* so‘zi dastlab ikki kishi o‘rtasida g‘oliblik uchun ma’lum qoidalarga asoslangan olishuv, o‘zaro bellashuv, ya’ni sport sohasiga oid ma’noni ifodalagan bo‘lsa, *kurash* so‘zining taraqqiyoti ko‘chma ma’noda qo‘llanish imkoniyatini kengaytirdi. “Qadimgi turkiy lug‘at”da *kurash* so‘ziga quyidagi izoh keltirilgan: “***KÙRÀŠ*** – I. бороться, сражаться... ***KÙRÀŠ*** – II. сходиться, приходиться как раз..., ***KÜRÄŠ*** – III. *sovm*. ot kürä – II..., [18. B. 328]. “Ruscha-turkcha lug‘at”da “Борьба, *j*. 1.sava**ş**, sava**ş**im, m**ü**cadele, 2. sport, g**ü**reş” [19. B. 368]**.** Mazkur lug‘atlarda *kurash* so‘zining etimologiyasi berilmagan. Bizningcha, *kurash* so‘zi dastavval o‘zaro *bellashuv, olishuv, jang qilmoq* ma’nolarida qo‘llangan. Demak, sport bilan bog‘lanishi davrlar o‘tishi bilan izohlanadi. Tarixiy taraqqiyoti davomida *kurash* so‘zi ko‘chma ma’nolarda *qovushmoq, maqsadiga erishmoq, davom ettirmoq, g‘alabaga harakat qilmoq* va boshqa ma’nolarni yuzaga keltirdi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kurash so‘zining bir qator ma’nolarining izohi beriladi [20. B. 433–434]. Hozirgi kunda *Kurash – o‘zbek milliy sporti. Tinchlik uchun kurash. Mafkuraviy kurash. Dushmanga qarshi kurash. Ikki tuyg‘u o‘rtasida kurash* singari iboralar polisemantik ko‘chishni hosil

qilgan. Tahlillarga e’tibor qarataylik: 1.*O‘g‘il bolalar bilan kurash tushardim* (S.Ahmad). 2.*Kurash tugab, hamma har tarafga tarqab ketdi. Eshpolvon o‘tirgan yerida o‘tiraverdi* (S.Ahmad). 3.*Bosqinchilarga qarshi xalq kurashi to‘xtamaydi, xalq nafrati so‘nmaydi* (M.Osim). 4.*Yurtboshimizning korrupsiyaga qarshi kurash boshlashi xalqimizning hukumatga bo‘lgan ishonchini yana bir bor mustahkamladi* (“Yangi O‘zbekiston” gazetasi). 5.*Muzaffar ichkarida ikki qarama-qarshi fikr kurashi nima bilan tugashini intiqlik bilan kutmoqda edi* (“Yangi O‘zbekiston” gazetasi). *Bolaligimizda tomdagi qorlarni kurash aka-uka zimmamizdagi vazifa edi* (R.Muxtorov). Keltirilgan jumlalarda polisemantik so‘z ma’nolari gapning turli bo‘laklarida sinkretik ma’no ifodalaydi.

Birinchi jumlada *kurash* so‘zi otga xos bo‘lib sport sohasiga tegishli, “nimaga?” so‘rog‘iga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vaziyatida, ya’ni ikki kishining olishuvi ma’nosida kelgan. Ikkinchi jumlada *kurash* so‘zi “nima?” so‘rog‘iga javob bo‘lib, ega vazifasida keladi va birinchi jumladagi kabi sport sohasidagi ma’noni anglatadi. Uchinchi jumlada “kimning?” so‘rog‘iga javob bo‘lib, aniqlovchi (xalqning kurashi) vaziyatida kelib, *yo‘q qilmoq, yengmoq, zafar quchmoq* signifikativ ma’nolariga birlashadi. To‘rtinchi jumlada “nimani?” so‘rog‘iga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vaziyatida kelib, *yo‘q qilish, bartaraf etish, jang boshlashi* ma’nolarini aks ettiradi. Beshinchi jumlada qor kurash so‘zi “nimani?” so‘rog‘ini olib, qor leksemasi bilan birikmali ifodalanib, to‘ldiruvchi vazifasida keladi va *tozalamoq, surib quymoq, yengillatmoq* ma’nolarida qo‘llaniladi. Anglashiladiki, keltirilgan misollarda *kurash* so‘zi ko‘p ma’nolilik hodisasi sifatida sinkretizmni o‘zida mujassam etadi.

Tilimiz tarixiga oid qadimgi manbalar sinkretizm va polisemiyaning o‘zaro bog‘liqligini jahon tilshunosligi singari turkiy va o‘zbek tilshunosligida ham mavjud ekanligidan dalolat beradi. G.Z.Roziqovaning fikricha: “Turkiy so‘zlarning asosiy qismi ko‘p ma’noli bo‘lib, buning isbotini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”ida ham ko‘rish mumkin. Lug‘atda turkiy qatlamning kengligi va ma’no xususiyatlarining boyligini ko‘rsatib beruvchi polisemantik so‘zlar tizimi aks etgan” [21. B. 208]. U “Devon”da keltirilgan *ag‘ïz I* – “odam va hayvonlar og‘zi; M*ag‘ïz II* – ariq og‘zi; charm idish yoki qovg‘aning og‘zi; xum og‘zi; qutuq og‘zi singari so‘zlarning ko‘p ma’no anglatuvchanligiga e’tibor qaratadi. Metaforik ma’nolarini tahlil etadi [21. B. 213].

Shuningdek, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Garchi ulug‘ tilshunos sinkretizm, omonimiya, ko‘p ma’nolilikni termin sifatida qo‘llamagan bo‘lsa-da, so‘zning shakl, vazifa va ma’no jihatidan turli o‘zgarishlar bilan voqelanishini dalillar orqali ko‘rsatgan. Navoiy so‘z mohiyati haqida fikr yuritganda falsafiy yondashadi. U til va nutqni tabiatan keng, turli ma’nolar xazinasiga boy, inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi qurol sifatida ko‘radi. Til va nutq masalasi insoniyatning falsafiy tafakkuri mahsuli ekanligiga e’tibor qaratadi.

Navoiy tilshunos olim sifatida so‘zning ko‘p ma’nolilik va omonimlik xususiyatini o‘zining keng mushohadasi va ilmiy zehni orqali ochib beradi. U “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Saddi Iskandariy” asarlarida turkiy tilning ma’no tovlanishlariga alohida urg‘u berib, shunday yozadi: “So‘z xizmatining cheki-chegarasi yo‘q, lekin u har doim o‘zgarib, ma’nosi yangilanib turadi. Jahon gulshanida bu toza gul xuddi quyosh gulidek ta’rifdan tashqaridir. Dunyo bog‘i shu gulning hidi bilan muattar bo‘lib, bu gal butun borliqning dimog‘iga atir purkab turadi. Lekin gul tanasi bir xil emas: unda gulbun bo‘lgani kabi tikan ham, barg ham, xas ham bor” [22. B. 8]. Keltirilgan matnda til va nutqning ma’no-mohiyati, ma’no jilolanishi va uning insonga ta’siri haqida so‘z borayotganini uqish qiyin emas.

Tarixiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, ko‘p ma’nolilik va omonimiya hodisalari XI asrdan ham avval mavjud bo‘lgan va o‘zbek tilining rivojlanishi davrida o‘z ma’nosidan tashqari sinkretik ma’nolarni yuzaga keltirgan. Ko‘rinadiki, o‘zbek tili taraqqiyotida sinkretizm o‘ziga xos til va nutq hodisasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu boisdan tilimizda ko‘p ma’noga ega va tabiatida sinkretizmni anglatuvchi so‘zlar miqdor jihatidan ko‘p bo‘lgan deya olamiz. “Tilda bir so‘z birdan ortiq narsa-hodisalarning atamasi bo‘la olganidek (polisemiya), bir hodisaning birdan ortiq so‘z ifodalay olishi holati borligi ham sir emas. Shuning o‘ziyoq ko‘rsatadiki, so‘zning yangi ma’nosi hamma vaqt ham yangi paydo bo‘lgan narsa-hodisalarni ifodalash talabi bilangina emas, balki aslida bor bo‘lgan narsa-hodisalarni ifodalash talabi bilan ham yuzaga keladi” [14. B. 234]. Masalan, o‘zbek tilidagi *to‘n* so‘zi inson qo‘l mehnati bilan yaratilgan libos ma’nosini anglatadi. Bu so‘zning kiyim ma’nosi tarixan keng ma’noda ishlatilgan. Ya’ni t*o‘n* so‘zi boshdan-oyoq – sarpo, libos ma’nosida qo‘llanilgan. Biroq *to‘n* so‘zi tor ma’noda qo‘llanib, boshdan-oyoq sarpo ma’nosini yo‘qotgan, xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda hozirda to‘y va turli marosimlarda kiyadigan *chopon, to‘n* ma’nolariga ko‘chgan. G.Z.Roziqovaning ma’lumotiga ko‘ra, qadimgi turkiy tilda *to‘n* so‘zining *qaftan* shakli iste’molda bo‘lgan va “ustki kiyim” ma’nosini bergan [21. B. 39]. Olima Maks Fasmer qarashlariga asoslanib shunday yozadi: “Demak, hozirgi o‘zbek tilidagi *kofta* so‘zi ilk turkiy tilda qo‘llangan *qafta*

so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. So‘z semantikasida torayish yuz bergan bo‘lib, avvallari u “to‘n, ustki kiyim, xalat ma’nolarida qo‘llangan bo‘lsa, hozirda faqatgina “ayollarning kalta ko‘ylaksimon, odatda, belgacha tushadigan kiyimi” ma’nosida istifoda etiladi [21. B. 40]. Shuningdek, hozirda to‘n so‘zining ijtimoiy hayotimizda qo‘llanish doirasi libos ma’nosidan chiqib, boshqa ma’nolarni ifodalashga ham ko‘chgan. Bu esa *to‘n* so‘zining ma’no taraqqiyoti keng ekanini, turli ma’noda qo‘llanishi uning sinkretik va polisemik tabiatini ko‘rsatadi. Obyektiv borliqdagi narsa-hodisalar, shuningdek, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘ladigan o‘zgarishlar, obyektiv hodisalarning mohiyatini tobora aniqroq, chuqurroq o‘rganish va shu kabilarning hammasi, shubhasiz, tilda o‘z ifodasini topadi. Buning amalga oshishi esa turlichadir. Xuddi shunday talab asosida tilda yuz beradigan hodisalardan biri so‘zning yangi ma’no yoki ma’nolar kasb etishidir [14. B. 218]. Bu esa tildagi sinkretiklik-polisemiya-tejamlilik hodisasi orqali yuzaga chiqishini ifodalaydi. *To‘n* so‘zining keng ma’noda qo‘llanishi tildagi tejamlilik hodisasining bir ko‘rinishi hisoblanadi. *To‘n kiydi. Mansab to‘ni. To‘n (libos) – uzual ma’no. To‘n kiydi* – konnotativ ma’no. Ko‘rinadiki, to‘n bir ot o‘zakdan tashkil topgan so‘z bo‘lib, bir o‘zak orqali bir necha ma’nolarni o‘ziga birlashtiradi. Yu.D.Apryesyan shunday yozadi: “Bizningcha, so‘zlarning shunday qo‘llanishigina ma’nolarining tarqoqligiga yetarlicha misol va isho-ra bo‘la oladi. Hatto ular so‘z ma’nolarini diskret ko‘rsatish tamoyilini buzmaydi, garchi ularni izohli lug‘atlarda aks ettirish imkoni bo‘lsa ham, shuningdek, lug‘atshunos oldiga bir qator jiddiy vazifalar qo‘yilganda ham polisemantik so‘z ma’nolarini tavsiflashda sinkretlashtirish haqidagi shartli vazifani qo‘yadi” [24. B. 509].

Xulosa

Shunday qilib, sinkretizm va polisemantizm birbutunlikni tashkil etuvchi, butun va bo‘lak munosabatidan iborat til va nutq hodisalari hisoblanadi. Sinkretizm hamda polisemantizm mantiqiy-semantik tushuncha bilan bog‘liq til hodisalari sifatida insonning obyektiv olamdan olgan taassurotlarini yuzaga chiqaradi. Polisemantizm birgina ko‘p ma’nolilik tushunchasini o‘zida aks ettirsa, sinkretizm omonimiya, polisemiya, dubleksiya, enantiosemiya, transformatsiya, neytralizatsiya, so‘z o‘yini, transsendensiya va boshqa bir qator til hodisalarini birlashtirgan, keng semantik maydonga ega mantiqiy-semantik tushunchani anglatadi.

Adabiyotlar:

1. *Sayfullayeva R.R., Abzualova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva D.N.* Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. – 286 b.

2. *Сысоева А.А*. Явление семантического синкретизма (на примере обозначений восприятия языке в диахронии) // Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки, 2019. Вып. 1(817). – С. 317–327. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru>article>yavlenie-semantichesk... (Дата обращения: 16.11.2023)

3. *Зализняк А.А.* Феномен многозначности и способы его описания // Вопросы языкознания, 2004. – № 2. – С.20–45.

4. *Некипелова И.М*. Метонимическая деривация как результат утраты семантического синкретизма в истории русского языка // Вестник ИГЛУ, 2012. – № 3(20). – С. 168–181.

5.*Саванкова Е.В.* Семантические процессы в слов – и фразеооброзовании в диахронии (на материале древне- и средневерхненемецкого). – Москва, 2005. [Электронный ресурс]. URL: https://static.freerefc rats.ru>_avtoreferats... (Дата обращения: 18.08.2024)

6. *Миртожиев М*. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 136 б.

7. *Ганиева Д*. Турли тизимдаги тилларга мансуб феълларда синкретизм ва полифункционаллик. – Андижон: Classic, 2022. – 204 б.

8. *Teshaboyeva G*. O‘zbek tilida maza-ta’m bildiruvchi sifatlarda mazmuniy sinkretizm: Filol.fan.b.fals. dokt...(PhD) diss. – Andijon, 2024. – 156 b.

9. *Абаев В.И*. О подаче омонимов в словаре // Вопросы языкознания, 1957. – № 3. – С. 31–43.

10. *Миртожиев М.М*. Ўзбек тилида лексик омонимия манбалари. – Тошкент: Фан, 2014. – 125 б.

11. Языкознание. / В кн: Большой энциклопедический словарь. В 2 томах. Том 2. / Глав.ред. А.М Прохоров. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 1434 с.

12. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – Москва: Высшая школа, 1987. – 272 с.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 5-жилд. /А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б.
14. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан.1981. – 315 б.
15. *Собиров А.* Ўзбек тили лексикасининг систем-структур тадқиқи. – Тошкент: BOOKMANY PRIT, 2022. – 262 б.
16. Фалсафа: (Дарслик) / Э.Ю.Юсуповнинг умумий таҳрири остида. Тошкент: Шарқ, 1999. – 436 б.
17. *Нурмонов А.* Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 440 с.
18. Древнетюркский словарь. / Ред.: В.М.Наделяев и др... – Ленинград: Наука, 1969. – 677 с.
19. Русско-турецкий словарь./ А.Н.Баскаков, Н.П.Голубева, А.А.Кямилева. и др. – Москва: Издательство «Русский язык», 1977. – 967 с.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: Беш жилдлик. 5-жилд. /А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.
21. *Розиқова Г.З.* Маҳмуд Кошғарий “Девону луғотит турк” асарида қўлланган от лексемаларнинг функционал-семантик ва услубий хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – 272 б.
22. *Навоий А.* Садди Искандарий /Насрий баён. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 286 б.
23. *Бреснева В.А*. Лингвистический синкретизм как актуальная категория современного языкознания. // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С.Пушкина: науч. журнал. – СПб., 2012. – № 2 (Том 1. Филология). – С. 62–70. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru.article>viwer (Дата обращения: 28.03.2024)
24. *Апересян Ю.Д.* О регулярной многозначности // Известия АН СССР Отделение литературы и языка. – Москва, 1971. Т.XXX. Вып.6. – С.509–523.

SYNCRETISM AND POLYSEMIA IN SPIRITUALITY

O.M. Tojiev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 84-93.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: syncretism, polysemy, homonymy, duplication, logic, semantics, transformation, metaphor, metonymy, syntax.

In conclusion, syncretism and polysemy are linguistic and speech phenomena that form a unified whole, consisting of the relationship between the whole and its parts. Syncretism and polysemy, as linguistic phenomena associated with logical and semantic concepts, reflect human impressions of the objective world. While polysemy solely represents the concept of multiple meanings, syncretism encompasses a broader semantic field, integrating homonymy, polysemy, dublexia, enontasemantics, transformation, neutralization, wordplay, transidence, and several other phenomena into a single logical concept.

In linguistics, the relationship, similarities, and differences between the concepts of syncretism, polysemy, and multiple meanings have been examined in the works of many researchers. It is particularly emphasized that the concept of multiple meanings is broader than polysemy, and that the term “polysemy” is often used to denote multiple meanings. The similarities and differences between syncretism and polysemy are explained through examples. It is theoretically proven, with supporting examples, that syncretism is a broader concept than polysemy. In the syncretic field, polysemy is presented as a part of the whole.

This article examines how the similarities and differences between syncretism, polysemy, and multiple meanings have been studied in global and Russian linguistics. According to linguistic traditions, the phenomena of dual meaning, multiple meanings, and polysemy are all classified under the general term “polysemy.” The expression of all three phenomena in language is reflected in polysemy. As a cognitive phenomenon, polysemy allows for the efficient use of existing vocabulary in human memory

and provides a broad means of expressing emotional and sensory experiences. This, in turn, is connected to the concept of semantic syncretism.

In this context, the relationship between syncretism and polysemy is determined by the fact that a single word in linguistic units can simultaneously appear with multiple meanings. Thus, syncretism, polysemy, and multiple meanings are interconnected, complex linguistic phenomena with intricate functions. Semantic syncretism expands the potential of polysemous phenomena even further. It also serves as an inter-categorical link, broadening the characteristics of multiple meanings in lexemes. The multiple meanings of a word refer to its ability to carry two or more meanings. A polysemous word has both direct and figurative meanings.

It becomes clear that syncretism absorbs and represents the phenomenon of multiple meanings. In other words, it takes on the burden of multiple meanings and serves as an expanding factor. Polysemy is not only the genetic development of meaning but also includes the development of figurative meanings derived from the original meaning. Thus, polysemy, as a phenomenon that generates figurative meanings, gives rise to hybridity (syncretism). Syncretism is a broader concept than polysemy because polysemy interacts with syncretism only within a single terminological framework. In contrast, syncretism unites various linguistic terms under one phenomenon. The distinction between syncretism and polysemy becomes particularly evident in syntactic units.

In conclusion, syncretism and polysemy are linguistic and speech phenomena that form a unified whole, consisting of the relationship between the whole and its parts. Syncretism and polysemy, as linguistic phenomena associated with logical and semantic concepts, reflect human impressions of the objective world. While polysemy solely represents the concept of multiple meanings, syncretism encompasses a broader semantic field, integrating homonymy, polysemy, dublexia, enontasemantics, transformation, neutralization, wordplay, transidence, and several other phenomena into a single logical concept.

References:

1. Sayfullayeva, R.R., Abzualova, M.Q., Mamadaliyeva, N.S., Yuldasheva, D.N. (2020) *Tilshunoslikka kirish* [Introduction to linguistics]. Tashkent: Mumtoz so‘z.

2. Sysoeva, A.A. (2019) Yavlenie semanticheskogo sinkretizma (na primere oboznachenij vospriyatiya yazyke v diahronii) [The phenomenon of semantic syncretism (using the example of designations of perception in language in diachrony*)]. Vestnik MGLU. Gumanitarnye nauki*. Issue. 1(817). Pp. 317-327. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru>article>yavlenie-semantichesk... (Date of Access:: 16.11.2023)

3. Zaliznyak, A.A. (2004) Fenomen mnogoznachnosti i sposoby ego opisaniya [The Phenomenon of Polysemy and Methods of Its Description]. *Voprosy yazykoznaniya*. No 2. Pp.20-45.

4. Nekipelova, I.M. (2012) Metonimicheskaya derivaciya kak rezul’tat utraty semanticheskogo sinkretizma v istorii russkogo yazyka [Metonymic derivation as a result of the loss of semantic syncretism in the history of the Russian language]. *Vestnik IGLU*. No 3(20). Pp. 168-181.

5. Savankova, E.V. (2005) Semanticheskie processy v slov – i frazeoobrozovanii v diahronii (na materiale drevne- i sredneverhnenemeckogo) [Semantic processes in word and phrase formation in diachrony (based on Old and Middle High German)]. Moscow. [Online]. URL: https://static.freerefc rats.ru>_avtoreferats... (Date of Access: 18.08.2024)

6. Mirtojiev, M. (1984) *O‘zbek tilida polisemiya* [Polysemy in Uzbek]. Tashkent: Fan.

7. Ganiyeva, D. (2022) *Turli tizimdagi tillarga mansub fe’llarda sinkretizm va polifunksionallik* [Syncretism and polyfunctionality in verbs belonging to languages of different systems]. Andijan: Classic.

8. Teshaboyeva, G. (2024) O‘zbek tilida maza-ta’m bildiruvchi sifatlarda mazmuniy sinkretizm [Syncretism in adjectives of feelings and taste in the uzbek language]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences Andijon.

9. Abayev, V.I. (1957) O podache omonimov v slovare [About the presentation of homonyms in the dictionary]. *Voprosy yazykoznaniya*. No 3. Pp. 31-43.

10. Mirtojiyev, M.M. (2014) *O‘zbek tilida leksik omonimiya manbalari* [Sources of lexical homonymy in the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

11. Prohorov, A.M. (ed.) (2000) *Yazykoznanie* [Linguistics]. In: Bol’shoj enciklopedicheskij slovar’. In 5 volumes. 4-volumes. Moscow: Bol’shaya Rossijskaya enciklopediya.

12. Maslov, Yu.S. *Vvedenie v yazykoznanie* [Introduction to linguistics]. – Moskva: Vyshaya shkola, 1987.

13. Madvaliev, A. (ed.) (2008) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 5. Tashkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

14. (1981) *O‘zbek tili leksikologiyasi* [Lexicology of the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

15. Sobirov, A. (2022) *O‘zbek tili leksikasining sistem-struktur tadqiqi* [System-structural study of the lexicon of the Uzbek language]. Tashkent: BOOKMANY PRIT.

16. Yusupov, E.Yu. (1999) *Falsafa:* (Darslik) [Philosophy: (Textbook)]. Tashkent: Shark.

17. Nurmonov, A. (2012) Tanlangan asarlar [Selected works]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: Akademnashr.

18 Nadelyaev, V.M. (ed.) (1969) *Drevnetyurkskij slovar’* (DTS). [Ancient Turkic dictionary]. Leningrad: Nauka.

19. Baskakov, A.N. (et.al.) (1977) *Russko-tureckij slovar’* [Russian-Turkish dictionary]. Moscow: Izdatel’stvo «Russkij yazyk.

20. Madvaliyev, A. (ed.) (2008) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

21. Roziqova, G.Z. (2021) *Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan ot leksemalarning funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari* [Functional-semantic and stylistic characteristics of noun lexemes used in Mahmud Kashgari’s “Devan of Turkic words”]. Farg‘ana.

22. Navoi, A. (1978) *Saddi Iskandarij* / Nasrij bayon [Saddi Iskandari / Prose statement]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

23. Bresneva, V.A. (2012) Lingvisticheskij sinkretizm kak aktual’naya kategoriya sovremennogo yazykoznaniya [Linguistic syncretism as a relevant category of modern linguistics]. Vestnik Leningradskogo gosudarstvennogo universiteta imeni A.S.Pushkina: nauch. zhurnal. SPb., No 2 (Vol 1. Filologiya). –Pp. 62-70. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru.articlle>viwer (Date of Access: 28.03.2024)

24. Aperesyan, Yu.D. (1971) O regulyarnoj mnogoznachnosti [On regular polysemy]. *Izvestiya AN SSSR Otdelenie literatury i yazyka*. Vol.30. Issue 6. Pp.509-523.

Muallif haqida ma’lumot:

TOJIYEV Olimjon Mo‘ydinovich – filologiya fanlari nomzodi. Andijon davlat universityeti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: o.tojiyev1960@gmail.com